



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 27 - aprel

VI-56-79-12-218-K/22

Tuproqqal'a tumani hokimligi

2023-yilda amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish loyihalariga takliflarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43 sonli Qarori 1-bandiga asosan:

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yildan boshlab har yili:

a) kelgusi yillar uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilishida:

- vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuman (shahar) hokimlari hamda sektor rahbarlari bilan birgalikda 1-aprelga qadar joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurati va ularning joylashuvini, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha keng jamoatchilik fikrini o‘rganadi;

- vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari 1-mayga qadar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining tavsiyalaridan kelib chiqib, Dasturga kiritiladigan loyihalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziriga shaxsiy kafillik asosida taklif kiritadi deb ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tumanimizda kelgusi 2023-yilda ijtimoiy va

ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga taklif kiritish maqsadida tegishli tashkilotlar sektor rahbarlari bilan birgalikda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurati va ularning joylashuvi o'rganib chiqdi va quyidagi takliflar bildirildi:

tuman Xalq ta'limi bo'yicha - 2 ta 9-sonli umumta'lim maktabi hamda 21-sonli IDUMni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash;

tuman Maktabgacha ta'lim bo'yicha - 3 ta "Yo'ldosh Oxunboboyev" mahallasida yangidan 180 o'rinli bino qurish, 6 va 13-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish;

tuman Sog'liqni saqlash muassasalari - 1 ta "Obod" mahallasida yangidan quvvati 50 qatnov bo'lgan "Oilaviy poliklinika" binosi qurish;

tuman Bolalar-o'smirlar sport maktabiga "Pastom" mahallasida yangidan 18x42 o'lchamdagi sport zal qurish hamda "Hazorasp" mahallasidagi filial binosini kapital ta'mirlash;

tuman Madaniyat obektlari bo'yicha 3 ta, "Muhabbat", "Sayapir" va "Tuproqqal'a maskani" mahallalarida Madaniyat markazi binolarini yangidan qurish;

tuman Ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha - 2 ta "Yakkachiqir" mahallasiga 15,0 km ichimlik suv quvurlari yotqizish, "Shayxlar" mahallasiga 5,0 km ichimlik suv quvurlari yotqizish hamda mavjud suv taqsimlash inshootini rekonstruksiya qilish;

tumandagi Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari - 2 ta obyektida jami 7 km rekonstruksiya hamda 4 ta ko'priklarni ta'mirlash.

Irrigatsiya obektlaridan 1 ta 3,8 km uzunlikdagi "Yangi yop" kanalini rekonstruksiya qilish.

Yuqoridagi masalani muhokama qilib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuproqqal'a tumani hokimi o'rinbosari Z.Matchanovning Tuproqqal'a tumanida 2023-yilda amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish loyihalariga takliflari to'g'risidagi axboroti ma'lumot

uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish bo'yicha quyidagi takliflari ma'qullansin:

tuman Xalq ta'limi bo'yicha - 2 ta 9-sonli umumta'lim maktabi hamda 21-sonli IDUMni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash;

tuman Maktabgacha ta'lim bo'yicha - 3 ta "Yo'ldosh Oxunboboyev" mahallasida yangidan 180 o'rinli bino qurish, 6 va 13-sonli maktabgacha ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish;

tuman Sog'liqni saqlash muassasalari - 1 ta "Obod" mahallasida yangidan quvvati 50 qatnov bo'lgan "Oilaviy poliklinika" binosi qurish;

tuman Bolalar-o'smirlar sport maktabiga "Pastom" mahallasida yangidan 18x42 o'lchamdagi sport zal qurish hamda "Hazorasp" mahallasidagi filial binosini kapital ta'mirlash;

tuman Madaniyat obektlari bo'yicha 3 ta, "Muhabbat", "Sayapir" va "Tuproqqal'a maskani" mahallalarida Madaniyat markazi binolarini yangidan qurish;

tuman Ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha - 2 ta "Yakkachiqir" mahallasiga 15,0 km ichimlik suv quvurlari yotqizish, "Shayxlar" mahallasiga 5,0 km ichimlik suv quvurlari yotqizish hamda mavjud suv taqsimlash inshootini rekonstruksiya qilish;

tumandagi Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari - 2 ta obyektida jami 7 km rekonstruksiya hamda 4 ta ko'priklarni ta'mirlash.

Irrigatsiya obektlaridan 1 ta 3,8 km uzunlikdagi "Yangi yop" kanalini rekonstruksiya qilish.

3. Rekonstruksiya qilishga taklif qilinayotgan 4 ta ko'prik hamda "Sharlauq" mahallasiga o'tuvchi 4-K-978 avtomobil yo'lining "Chap qirg'oq katta kanali" ko'prigi holati tegishli mutaxassislar tomonidan qayta o'rganib chiqilib, lozim bo'lsa o'zgartirish yuzasidan tegishli taklif kiritilsin.

4. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari Z.Matchanov va Xalq deputatlari tuman kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Salayev